

O`ZBEK KOMPOZITORLARI IJODIDA UVERTYURA JANRI
AHAMIYATI

Mansurova Aziza G'ayrat qizi
O'zbekiston davlat konservatoriysi
"Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" kafedrasi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek kompozitorlari ijodidagi simfonik musiqa, uvertyuraning janrini o'tmishdan to bugunga qadar tahlil qiladi. Simfonik musiqa hamda simfonik uvertyura janrida yozilgan milliy meros asarlarimizning yozilish uslubi, shakli hamda mavzuiyigini tavsiflaydi.

Kalit so'zlar: Simfonik musiqa, simfonik uvertyura, simfonik poema, simfonizm, o'zbek kompozitorlari, Ashrafiy, Kenjayev, Asafyev.

Kirish. Musiqa har bir xalqning madaniyati va ma'naviyatini aks ettiruvchi muhim san'at turlaridan biri hisoblanadi. O'zbek xalqining boy tarixi, urf-odatlari va an'analari uning musiqasida yorqin namoyon bo'lib, bu san'at turi asrlar davomida shakllanib va rivojlanib kelgan. O'zbekistonda musiqa san'ati qadimdan shakllangan bo'lib, u nafaqat milliy merosning ajralmas qismi, balki yosh avlod tarbiyasida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqaning inson qalbi va ongiga ta'siri beqiyosdir. U milliy ruhni asrab-avaylash, tarixiy xotirani mustahkamlash va insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda musiqa san'ati asosan og'zaki an'analarga asoslangan holda rivojlangan bo'lsa-da, zamonaviy akademik yo'nalishlar, jumladan, uvertyura janri ham katta e'tiborga loyiqidir. Uvertyura o'zining tantanavor, jo'shchin va mazmunli ohanglari bilan tinglovchiga chuqur ta'sir ko'rsatadi hamda milliy musiqiy merosimizning jozibasini ochib beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston kompozitorlari tomonidan yaratilayotgan uvertyuralar xalq musiqasi an'analariga tayanib, zamonaviy kompozitsion usullar bilan boyitilmoqda. Bu esa milliy musiqamizning nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etilishiga xizmat qilmoqda. Mazkur bitiruv malakaviy ishida O'zbekiston kompozitorlari ijodida uvertyura janrining ahamiyati, uning rivojlanish tarixi va bugungi kundagi o'rni atroflicha tahlil qilinadi.

Avvalambor har bir sohani yanada rivojlantirish, yangilik kiritish uchun o'tgan bir yillik davrda qilingan ishlarni sarhisob qilinib, keyingi istiqboldagi rejalar belgilab olinadi, ya'ni buyuk adibimiz Abdulla Qodiriyning "Moziyga qarab ish ko'rmoq xayrlidir" degan mashhur ibratli gaplarini keltirgan holda 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar sarhisobi bilan quyida tanishib chiqing.

2023-yil davomida bevosita vazirlik tomonidan, 12 ta xalqaro festivalar hamda

konferensiyalar yuqori saviyada o‘tkazildi.

Shu bilan birga xorijiy davlatlarda Iqtidorli xonanda va sozandalar tomonidan 6 ta, O‘zbekiston davlat filarmoniyasining ijodiy jamoalarining 16 ta “Bahor” davlat raqs ansamblı jamoasi tomonidan 10 ta, O‘zbekiston davlat simfonik orkestri jamoasi tomonidan 3 ta ijodiy gastrol safarlari amalga oshirildi.

Madaniyat markazlari hamda bolalar musiqa va san’at maktablari uchun 6 042 ta milliy musiqa cholg‘ulari xarid qilindi hamda aholi uchun qiziqarli bo‘lgan havaskorlik to‘garaklarini tashkil etish bo‘yicha 10 ming donadan ziyod o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va tavsiyanomalar tayyorlanib, hududlarga yetkazildi.

Madaniyat va ma’rifat kanali tomonidan hozirgi kunga qadar, 9 ta opera va balet spektakllari “Sadoqat”, “Traviata”, “Faust”, “Shoh qallig‘i”, “Toska” va “Rekvium” operalari hamda “Oqqush ko‘li”, “Shahrezada”, “Ming bir kecha baleti”, “Oltin fondi”ga yozib olindi.

Taniqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zлari naqadar haqiqat ekanini yaxshi anglaymiz. Tarbiya masalalariga e’tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko‘ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizga ayon. Bugungi globallashuv davrida shuni guvohti bo‘lmoqdamizki, qaysiki millat ta’lim-tarbiya masalasida sustkashlikka yo‘l qo‘ysa uning oqibatlari fojeali yakun topmoqda, shuni ta’kidlamoqchimanki ta’lim va tarbiya ikki qanotli qush kabitdir, biri ikkinchisini to‘ldirib turadi, o‘tmish tarix shuni isbotlab berganki albatta millat tarbiyasiga ijobjiy ta’sir bu madaniyat va san’at bilan hamohang olib boriladi.

Hozirgi kunda Madaniyat vazirligi tizimida jami 368 ta ta’lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Jumladan, 325 ta bolalar musiqa va san’at maktabi, 30 ta ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktabi, maktab-internatlari, 2 ta kollej va 1 ta texnikum, 5 ta oliy ta’lim muassasasi va ularning 4 ta filiali hamda 2 ta malaka oshirish markazlari mavjud.

Mazkur ta’lim muassasalarida 110 ming 285 nafar o‘quvchi-talabalarga 20 ming 3 nafar professor-o‘qituvchilar ta’lim berib kelmoqda.

Shuningdek, 837 ta madaniyat markazlarida faoliyat olib borayotgan to‘garaklar soni 5 250 taga yetkazilib, unda qatnashuvchi ishtirokchi yoshlar soni 52 ming nafarga oshirildi.

“O‘zbekteatr” hamda “Madaniyat ta’limi markazi” davlat muassasalari faoliyati qayta yo‘lga qo‘yish;

vazirlik tizimidagi Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbekiston milliy musiqa san’ati akademiyasi etib, Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti etib qayta

tashkil etish;

davlat teatrlari tomonidan namoyish etiladigan spektakllarga

3,6 mln nafar tomoshabinlar jalgan etish;

20 dan ortiq xalqaro festival va gastrollarda davlat teatrlarining ijodimy jamoalari ishtiroki ta'minlash;

50 nafar ijodiy va yordamchi xodimlarning xorijiy davlatlarning nufuzli teatrlarida mahoratini oshirish;

davlat buyurtmasi asosida 42 ta spektakllar sahnalashtirish;

“ERP madaniyat” yagona boshqaruvi tizimini joriy qilish bo‘yicha 2024 – 2027-yillarga mo‘ljallangan harakatlar dasturi ishlab chiqiladi, Konsert-tomosha faoliyati ishtirokchilarining yagona onlayn portalini ishlab chiqish belgilangan.^[1]

O’zbek kompozitorlarining bugunga qadar yozilgan simfonik janrda yozilgan musiqiy asarlari yosh avlod professional musiqachilar ongi va tafakkuriga yuqori darajada ta’sir ko’rsatadi. Asosiysi o’zbek kompozitorlarining ushbu yo’nalishdagi ijod mahsullari asl millatimizning o’zligi va qadriyatlarini xalq tilida milliy ohanglar ila singdira oladi. Bugungi kunda Jahan musiqa sahnasida jaranglayotgan musiqiy boyligimiz xalqimizning oliy mafkurasini eng yuqori o’rinlarda ochib beradi.

Simfonizm — umumlashtirilgan tushuncha, musiqiy fikr rivojining eng muhim turlari (xususan, simfonik shakl)ga xos asosiy xususiyatlarini belgilaydi. Simfonizm xususiyati deb musiqiy asarda bir nechta musiqiy obrazlarning ichki aloqadorligi, rivojlanishdagi izchillik va butun asarning yaxlitligi nazarda tutiladi. Shu bilan birga, simfonizm faqat musiqaning simfonik turiga xos emas. U turli janrlarda, shu jumladan vokal va sahna asarlarida ham ko‘zga tashlanadi. Simfonizmning mohiyati va uning turli janrlardagi namoyon bo‘lishini aniqlashga qaratilgan birinchi urinishlar A. V. Asafyevga tegishlidir^[1]. Asafyev musiqiy shaklning rivojlanishini, obrazlarning uyg‘unligi va asarning umumiyligi harakatini aniqlash orqali tavsiflagan. Unga ko‘ra, simfonizm musiqiy shaklning ichki harakati va musiqa obrazlarining o‘zaro aloqasidan kelib chiqadi. Asafyev Beethovening simfonik asarlariga, ayniqsa uning oxirgi simfoniyalariga tayanib, musiqiy shaklni nafaqat tashqi shakl sifatida, balki ichki harakatlarning tizimi sifatida ko‘rsatadi.

Simfonik musiqa — orkestr uchun yozilgan va keng qamrovli musiqiy shakl va janrlarni qamrab oluvchi musiqadir. U eng avvalo jiddiy va chuqr mazmunli asarlar yaratishga imkon beradigan yirik shakllar bilan ifodalanadi.^[2]

^[1] O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi axborot xizmati / 2024-02-29

Simfonik musiqa janri tarixan musiqaning eng yuksak badiiy shakllaridan biri sifatida rivojlangan bo‘lib, unda asosan simfoniya (ko‘p qismli orkestr asari), simfonik poema (bir qismlik shakldagi dasturiy simfonik asar), uvertyura (odatda opera, balet yoki oratoriya boshlanishi sifatida yozilgan orkestr asari) kabi janrlar yetakchi o‘rin egallaydi. Keyinchalik simfonik kartina (sinfik obrazli asar), simfonik syuita (turli qismlardan tashkil topgan orkestr to‘plami) va boshqa shakllar ham shakllangan.

Simfonik musiqa o‘zining mazmuni va badiiy imkoniyatlari jihatidan nihoyatda keng ko‘lamli: bu yerda oddiy lirik obrazlardan tortib, murakkab dramatik va falsafiy umumlashtirishlargacha bo‘lgan ifodalar aks ettiriladi. Ayniqsa, simfonik musiqa shakl va texnik vositalarining boyligi bilan ajralib turadi: unda orkestr imkoniyatlarining rang-barangligi, tovush soyalari va tembrlar o‘zaro uyg‘unlashtiriladi.

Simfonik orkestr esa, o‘z navbatida, musiqa san’atining eng muhim ifoda vositalaridan biri sifatida shakllandi. Unda torli, puflama, zarbli va boshqa cholg‘ular sinfi keng vakillik topgan bo‘lib, bu asarlarga beqiyos boylik va chuqurlik baxsh etadi. Simfonik orkestrning o‘ziga xos xususiyati — turli musiqiy tembrlar va ovozlarning uyg‘un ifodasidir. Simfonik musiqa nafaqat monumental shakllarda (simfoniya, poema, uvertyura), balki kichikroq shakllarda ham yaratilgan: orkestr miniyaturlari, preludiylar, intermezzolar, orkestr variatsiyalari va boshqalar. Biroq har holda simfonik musiqa uchun eng muhim xususiyat — g‘oyaviy yuksaklik, shakliy yetuklik va ifodaviy chuqurlik hisoblanadi.

Simfonik uvertyura dastlab teatr sahnalari (opera, balet) uchun yozilgan bo‘lsada, vaqt o‘tishi bilan mustaqil orkestr asari sifatida ham shakllandi. Uvertyura ko‘pincha aniq bir bayramona yoki dramatik kayfiyatni ifodalaydi.

Simfonik musiqaning rivojlanishi zamonaviy orkestr texnikasining, kompozitorlik san’ati va musiqiy ifoda vositalarining rivoji bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu boisdan ham simfonik musiqa san’atning eng murakkab, serqirra va mukammal sohalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Uvertyura – (lot.apertura – ochish, boshlanish) opera, balet, oratoriya, drama, kinofilm va boshqalarning muqaddimasidan iborat cholg‘u pyesa, shuningdek, orkestr uchun yozilgan konsert asari. Tinglovchini opera, balet va hokazolardagi voqealarga tayyorlaydi, undagi jo’shqin muhitga olib kiradi. Uvertyura odatda asarning xarakteri, g‘oyaviy maqsadi, asosiy obrazlarini umumlashtirgan holda ifodalaydi. [3]

Simfonik uvertyura o‘zbek kompozitorlari ijodiga kirib kelish bosqichlari. XX asrning 20–40-yillari O‘zbekiston musiqa san’ati taraqqiyotida o‘ziga xos bosqichni tashkil etdi. Aynan shu davrda simfonik musiqaning shakllanishi va rivojlanishi, asosan, rus kompozitorlarining ijodiy faoliyati orqali amalga oshdi. Bu ijodkorlar — V. Uspenskiy, A. Kozlovskiy, G. Mushel va R. M. Glier kabi taniqli san’at namoyandalari — o‘zbek xalqining boy musiqiy merosini chuqur o‘rgandilar va shu asosda milliy ruhda kuyylanadigan simfonik asarlar yaratishga intildilar.

O'zbek simfonizmi rivojlanib kelayotgan bir davrda "mustaqil" uvertyura, teatr sahnalashtirishlari bilan bog'liq bo'limgan uvertyura tarqaldi. "Milliy uvertyuralarning katta qismi madhiyaviy (gimnik) xususiyatlarga ega. Ularning hayotni tasdiqllovchi xarakteri yoki epik-qahramonona rejaning bayramona ohangida (masalan, umumlashma qo'shiqlik tematikasi bilan Shostakovichning "Bayram uvertyurasi"da) yoki esa ko'ngilochar-o'yinbaxsh, sof janrli, tasviriylik elementlari bilan boyitilgan bayramona kayfiyatda namoyon bo'ladi."

Ular o'zbek musiqasining an'anaviy ohanglari va milliy lad xususiyatlarini zamonaviy kompozitsiya texnikalari bilan uyg'unlashtirib, simfonik janrning turli shakl va ifoda usullarida ilk namunalarni taqdim etdilar. Mazkur davrda yaratilgan simfonik asarlar nafaqat o'zbek professional musiqa san'ati tarixida yangi sahifani ochdi, balki mahalliy yosh kompozitorlarning shakllanishiga ham mustahkam zamin yaratdi.

Rus kompozitorlarining mahoratli pedagogik va ijodiy faoliyati natijasida o'zbek zaminida zamonaviy estetik talablar va yangicha uslubiy yo'naliishlarga asoslangan milliy simfonik musiqaning rivoj topishi uchun asosiy shart-sharoitlar vujudga keldi. Bu jarayon o'zbek musiqa madaniyatining XX asrdagi yangi bosqichga ko'tarilishida muhim o'rinni tutdi.

Shunday ma'nodagi obrazlilik yo'naliishi o'zbek uvertyuralariga ham xosdir. Uvertyura nazarda tutadigan faol, harakatchan xarakter o'zbek kompozitorlari tomonidan zamonaviy mavzularni ifodalash, sovet insonining optimistik kayfiyatini va mehnat energiyasini yetkazish uchun keng qo'llangan. Masalan, A. Berlinning "Yoshlar uvertyurasi", "Bayram uvertyurasi", "Quvonchli bayram" uvertyuralari, I. Nikolaevning "Kolxozda bayram" uvertyurasi — yaxshi professionallik bilan ajralib turadi, rus qo'shiq ohangdorligiga asoslangan, shuningdek A. Malaxovning "Kolxozi uvertyurasi", unda muallif haqiqiy o'zbek xalq kuylariga murojaat qilgan.^[4]

Simfonik uvertyura yaratgan o'zbek kompozitolari. G'. Qodirovning 1954 yilda yaratgan va O'zbekiston Respublikasining 30 yilligiga bag'ishlangan "Yoshlar uvertyurasi" o'zbek milliy kuyining jo'shqin va tirik ruhi bilan sug'orilgan. Ixcham hajmga ega, shakl jihatidan sodda (rivojlanish o'rniga epizod kiritilgan sonata-allegro shaklida qurilgan) bu uvertyura yorqin hissiyotlarga boy tematikasi va yoshlarga xos tetiklik hamda shijoat bilan ajralib turadi.

Ta'kidlab o'tishimiz joiz bo'lgan kompozitor o'zbek simfonizmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan ijodkor – Mirsodiq Tojiyevdir. Milliy simfonizmning eng yorqin namoyondalaridan desak adashmagan bo'lamiz. O'zining keng qamrovli ijodida o'zbek xalqi va uning boshidan kechirgan tarixi hamda undagi obrazlarni aks ettiradi. Kompozitorning ijodiy merosida "Bayram uvertyurasi" alohida o'rinni tutadi.

1985-yilda premerasi bo'lib o'tgan ushbu asar hozirgi kunga qadar orkestrlar repertuaridan tushmay kelmoqda. Asarning tantanavorligi, milliy obrazlarning yorqin

ifodalanganligi, orkestr cholg‘ularidan mahorat ila foydanilganligi asar muvaffaqiyatining sababchisidir.

K. Kenjayev yaratgan “Yoshlar uvertyurasi” esa yoshlarga bag‘ishlangan musiqiy asarlarga xos umumiyligi optimistik ruhiyatni jiddiy mushohada ohanglari bilan uyg‘unlashtirishga bo‘lgan intilishi bilan e’tiborni tortadi. Ayniqsa, uvertyuraning kirish qismida chuqur va diqqatni jamlovchi kayfiyatni aks ettiruvchi mavzu ilgari surilgan.

M. Ashrafiy tomonidan O‘zbekiston Respublikasining 40 yilligiga bag‘ishlab yaratilgan “Bayram uvertyurasi” esa o‘zining yorqin rang-barangligi bilan ajralib turadi. Butun uvertyura xalq qo‘shiqchiligi va raqs ritmlarining kuchli ta’siri ostida yaratilgan. Uning tematikasi lad ranglarining yangiligi, ritmik elastiklik, keng ko‘lamda sinkopik usullardan foydalanish va metrik nosimmetriya (masalan, 7/8 o‘lchamdagagi ritmlar) bilan boyitilgan.

Bu uvertyurada ham sonata shaklini aniq bir maqsad — yorqin bayramona kayfiyat yaratishga bo‘ysundirishga intilish seziladi. “Timur Malik” asaridagi kabi, bu yerda ham simmetrik qurilishga erishilgan: repriza qismi aks ettiruvchi (ko‘zgudek) tuzilgan.

Tonallik rejasiga alohida e’tibor qaratiladi: bu rejadagi subdominanta (asosiy tonallikdan pastroq) yo‘nalish o‘zbek musiqasiga xos xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi: ekspozitsiyada sol majordan (G-dur) mi bemol majorga (Es-dur) o‘tish, o‘rta bo‘limda mi majorda (E-dur) rivojlanish va reprizada do majordan (C-dur) sol majorga (G-dur) qaytish kuzatiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston kompozitorlari o‘zbek musiqiy madaniyatiga ko‘plab yuksak badiiy darajadagi uvertyuralar yaratib taqdim etganlar va hozirda ham ko‘plab yosh kompozitorlarimiz milliy ruhdagi asarlarni yaratmoqdalar. Biz kompozitorlarning ijodini o‘rganar ekanmiz, ularning tasavvuri, ichki dunyosini ruhimizga singib ketgan qadriyatlarimiz mafkurasisini o‘zlarining ijodida eng gullagan, yutuqqa erishgan asarlarida ko‘ramiz. Bundan xulosamiz shuki, biz ijodkor kompozitorlarning o‘zaro ijodimizga bo‘lgan qiziqishimiz va hurmatimiz juda ham yuqori, ayniqsa ustoz kompozitorlarimizning yuksak sharafga ega bo‘lgan ijod namunalariga. Bu biz uchun kompozitorlik va bastakorlik ijodiyotidagi hamda simfonik musiqaning zamiridagi eng ulkan musiqiy ilmlar merosidir.

[¹] Музыкальная энциклопедия / Издательство “Советская музыкальная энциклопедия” 1981 / 5 том

[²] Музыкальная энциклопедия / Издательство “Советская музыкальная энциклопедия” 1981 / 5 том

[³] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi / Davlat ilmiy nashriyoti 2005 yil / 9 jild

[⁴] Узбекская симфоническая музыка / Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма / Ташкент 1979

Ana shunday meros bizni musiqiy tafakkurimizni yuksaltiruvchi yangi yo'llarni ochadi, ijodimizni ma'no va mazmunli, teran va mukammal milliy musiqiy taraflama rivojlantiradi. Yuqorida sanab o'tganimizdek, M. Ashrafiy, S.Yudakov, G'.Qodirov, K.Kenjayev, M.Tojiyev, M.Mahmudov, R.Abdullayev kabi ustoz kompozitorlarimizning musiqiy meroslari biz uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ASARLARI

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston. 2016.

ASOSIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Музыкальная энциклопедия / Издательство "Советская музыкальная энциклопедия" 1981 / 5 том
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 9-jild. Davlat ilmiy nashriyoti. 2005 y
3. Узбекская симфоническая музыка. Н.С.Янов-Яновская. Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма. Ташкент 1979
4. Jabborov A. "O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari". T.: "Yangi asr avlod", 2004.

INTERNET SAYTLARI RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi axborot xizmati / 2024-02-29